



TAQLID TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Ismatillo Axmadjonov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada taqlid tushunchasining mohiyati, uning shar'iy asoslari va amaliy zarurati tahlil qilinadi. Ayniqsa, zamonaviy davrda mujtahid imomlarga ergashishni inkor etuvchi qarashlarga ilmiy munosabat bildiriladi. Taqlidning lug'aviy va istilohiy ma'nolari yoritilib, Qur'on va sunnatdan hukm chiqarishdagi murakkabliklar misollar asosida tushuntiriladi. Shuningdek, oddiy musulmonlar uchun ilmi ulamolarga murojaat qilishning ahamiyati, ixtilofli va qat'iy masalalar o'rtasidagi farq hamda taqlidning qaysi holatlarda zarur ekani asoslab beriladi. Maqolada taqlidning Qur'on va sunnatga zid emasligi, balki ularni to'g'ri tushunish vositasi ekani ilmiy dalillar bilan izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *taqlid, mujtahid, ijtehad, Qur'on, sunnat, fiqh, usul al-fiqh, hanafiy mazhabi, shar'iy dalillar, ixtilof, ulamolar, islom huquqi.*

Hozirgi kunda muayyan bir mazhabga ergashgan kishilarni ko'rkona taqlid qilishda ayblab, odamlar fikrini zaharlashga harakat qilayotganlar paydo bo'lgan. Ular mujtahidga taqlid qilish mumkin emasligi, balki har bir odam to'g'ridan-to'g'ri Qur'oni karim va sunnatdan dalil olib amal qilishi lozimligini ta'kidlab kelmoqdalar. Shu munosabat bilan mazkur bobda taqlidning mohiyati, turlari va shu kabi boshqa jihatlari ochib beriladi.

Taqlid so'zi arab tilida biror narsani bo'yniga osib olish, mansabga tayin qilish, majburiyat yuklash, o'xshatish, soxtalashtirish ma'nolarini



bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida esa faoliyatda o'zgalarga ergashish, o'zgalar namunasi asosida ish olib borish ma'nolarini bildirishi keltirilgan.

Istilohiy ma'noda esa, taqlid – so'zi hujjat bo'lmagan shaxsning gapini hujjatini bilmasdan qabul qilib, amal qilishidir.¹

Ibn Humom va Ibn Nujaymlar esa taqlidga quyidagicha ta'rif berganlar: “Taqlid – undan hujjatlari talab qilinmasdan turib hujjat bo'la olmaydigan kishining fikriga amal qilish”²

Taqlid qiluvchi kishi ilmi, taqvodor olim odamning diniy amali va aytganlariga hujjat talab qilmasdan ergashishi nazarda tutiladi. Chunonchi, musulmonlar Rasululloh (s.a.v.)ning so'zlari va amallari hujjat bo'lgani uchun u zotga taqlid qilmaydi, balki ergashadi.

Qur'oni karim va sunnatdan hukm chiqara olish imkoniyatiga ega bo'lmagan kishi, chuqur bilimga ega bo'lgan olimga murojaat qilishi shart va uning hukmiga tayanishi lozim.

Qur'oni karim oyatlari va sunnatda kelgan ba'zi ko'rsatmalar hamma uchun birdek tushunarlidir. Ularni anglab yetish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Qur'oni karimda: “Biringiz biringizni g'iybat qilmang” degan oyatni misol sifatida keltirish mumkin.³

Arab tilini bilgan har qanday kishi oyatdan ko'zlangan maqsadni darhol tushunadi, chunki unda hech qanday tushunarsiz va yashirin ma'no yo'q va u shariatning boshqa dalillari bilan qarama-qarshi ham emas. Shuningdek, bir hadisda: “Arabning arab bo'lmagandan ustunligi yo'q” (Imom Ahmad, Bayhaqiy rivoyati), deyilgan. Bu hadis ham oson tushuniladi, buning uchun arab tilini bilish kifoya qiladi.

¹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. - Toshkent: Hilol-nashr, 2019.

² Amir Bodshoh. Taysir at-tahrir. - Qohira: Dor as-Salam, 2017. - J. 4. - B. 246.

³ Amir Bodshoh. Taysir at-tahrir. - Qohira: Dor as-Salam, 2017. - J. 4. - B. 246.



Ayni damda Qur'on va sunnatda tushunilishi qiyin bo'lgan mantiqiy, tarixiy va boshqa shar'iy ilmlarni talab qiladigan mutashobih, mubham, ixtilofli ko'rsatmalar ham ko'p. Qur'oni Karimning Baqara surasidagi: "Taloq qilingan ayollar uch quru' kutadilar" oyati bunga misol bo'lishi mumkin.

Oyatda eridan ajrashgan ayol boshqasiga tegishdan oldin "uch quru'" kutishi lozim ekani aytilmoqda. "Quru'" so'zi esa arab tilida ham hayz, ham poklik ma'nolarida ishlatiladi. Shunga o'xshash holatlarda ikki ma'nodan qaysi biriga amal qilish kerak?

Hadislarda ham yuqoridagiga o'xshash holatlar uchraydi. Jumladan, Payg'ambar (s.a.v.) bir hadisda shunday deganlar: "Kim imomning ortida namoz o'qisa, imomning qiroati u uchun ham qiroatdir".⁴

Bundan imom namozda Qur'on o'qisa, unga iqtido qilgan kishi jim turishi kerak degan xulosa chiqadi. Boshqa hadisda esa: "Kim namozda Fotihani o'qimasa, namozi namoz emas" (Buxoriy rivoyati), deyilgan.

Bu hadisdan har bir kishi namozda Fotihani o'zi o'qishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Zohiran qaraganda, bu ikki hadis bir-biriga qarama-qarshi ma'noda aytilgandek tuyuladi va qaysi hadisga amal qilish kerak degan savol paydo bo'ladi. Bunday holatlarda omi kishi bularga javob topa olmaydi. Qur'oni karim va sunnatdan hukm chiqarish jarayonida bunday qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Bunday holatlarda o'zimizning fikr va ra'yimizga asoslanib biror hukm chiqarib, unga amal qilish lozim bo'ladi yoki o'zimiz mustaqil hukm chiqarish o'rniga Qur'on va sunnat borasida bilimli olimlarning fikr va qarashlariga murojaat qilish, ya'ni ularga taqlid qilish kerak bo'ladi.

⁴ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Usulul fiqh. - Toshkent: Hilol-nashr, 2019.



O'zimizning tushunchamizga asoslanib ish ko'rish ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Mo'tabar olimlarning fikriga asoslanish esa ancha ehtiyotkorona maslakdir. Bu kamtarlik emas. Olimlarning bilimlari, tushunchalari, qobiliyatlari, xotiralari, odoblari va taqvolarini oddiy insondagi xususiyatlar bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Ilk islom asrlarida yashagan olimlar Qur'on nozil bo'lgan muhit va vaqtga yaqinroq bo'lganlari hamda o'sha davr tili, ijtimoiy muhiti va sharoitini yaxshi bilganlari sababli bu manbalarni yaxshiroq tushunganlar.

Agar biz yuqorida keltirilgan fikrlarni e'tiborga olib, o'z tushunchalarimizga tayanmaydigan bo'lsak, noaniq va qiyin masalalarda avval o'tgan olimlarning fikrlariga ergashadigan bo'lsak, biz muqallid (taqlid qiluvchi) bo'lamiz. Mana shu narsa taqlidning tavsifi hisoblanadi.

Mujtahid-imomga taqlid qilish Qur'oni karim va sunnatning ma'nosini, ko'zlangan maqsadini tushunishda qiyinchilik yoki noaniqlikka uchraganda, matndan qo'shimcha ma'no xulosa qilish yoki matnda aniq ixtilof bor deb bilinadigan holatlarda asoslanadi. Ikki xil ma'noni va ochiq ixtilofni o'zida jamlamagan Qur'on va sunnatning qat'iy hukmi bo'lgan masalalarda imom yoki mujtahidga taqlid qilishga hojat qolmaydi.

Mashhur hanafiy faqih Shayx Abdulg'ani Noblusiy (vaf. 1119/1707 y.) shunday deydi: "Bir qarashda ma'lum bo'lgan, ittifoq qilingan amallarda mazhablardan biriga taqlid qilishga hojat yo'q. Masalan, namoz, ro'za, zakot va hajning farzligi, zino va besoqqolbozlik, mast qiluvchi ichimlik ichish, qotillik, o'g'rilik va bironing molini tortib olish kabi ishlarning haromligi bunga kiradi. Ixtilofli masalalardagina taqlidga ehtiyoj seziladi"⁵

Shayx Xatib Bag'dodiy esa shunday yozgan: "Shariat ahkamlari ikkiga bo'linadi: birinchisi - Payg'ambarimiz (s.a.v.) olib kelgan diniy

⁵ Nablusiy. Xulosat at-tahqiq fi bayon hukm at-taqlid. - Istanbul: Dor ash-Shafiqa, 2011. - B. 4.



ta'limot ekani bir qarashda ma'lum bo'lgan besh vaqt namoz, zakot, Ramazon oyi ro'zasi, hajning farzligi yoki zino, mast qiluvchi narsalarni ichish va boshqa amallarning haromligi kabi. Bularda taqlid qilish joiz emas, chunki bu masalalarni har bir kishi bilib, idrok etadi. Ularda taqlid qilishning biror ma'nosi yo'q.

Ikkinchisi esa faqat o'rganish va muhokama qilish orqali bilinadigan masalalardir. Masalan, ibodat, muomalot, nikoh va boshqa hukmlarning far'iy masalalari. Bunday masalalarda Allohning: "Agar bilmaydigan bo'lsangiz, zikr ahlidan so'rang", degan so'ziga binoan taqlid qilishga ruxsat bor. Agar din sohasidagi masalalarda taqlid qilishni man qilsak, unda har bir kishi ularni to'g'ridan-to'g'ri o'rganishi kerak bo'lib qoladi. U vojib qilinsa, boshqa sohalar izdan chiqadi. Natijada dehqonchilik va chorvachilikka zarar yetadi"⁶

Yuqoridagilardan mujtahid shariatning mustaqil manbasi ekani tushunilmaydi. Balki, taqlidning asosiy obyekti Qur'oni karim va sunnatni muayyan imom orqali tushunish hisoblanadi. Mujtahid esa shariat qonunlarini sharhlovchi bo'lib, uning manbalarni tushuntirishi asos sifatida tan olinadi. Shu sababli, qachonki maqsad Alloh va Rasululloh (s.a.v.)ga ergashish bo'lsa, agar usiz (taqlidsiz) bunga oson erishilsa, eng oxirgi holatlarda asosiy taqlid qabul qilinmaydi. Fikrlariga ergashiladigan imom sharhlovchi sifatida emas, balki qonun chiqaruvchi sifatida qabul qilinadi va aynan shu ma'noda "taqlid" tushunchasi nazarda tutiladi.⁷

References:

1. Abdulmajid Juzajoniy. Qovaid fi ulum al-hadis an-nabaviy ala manhaji as-sadatinal hanafiyya. Istanbul: Dor al-kutubul arobiyya, 2021. – 396 B.
2. Abdulmajid Turkmoniy. al-madخال ila usul al-hadis. Urdun: Dor ar-rayohin, 2021.

⁶ Xatib Bag'dodiy. Al-Faqih va-l-mutafaqqih. – Bayrut: Dar al-Ilmiyya, 1996. – J. 2. – B. 67–68.

⁷ "Taqlid va uning xususiyati", Fiqh.uz. URL: <https://fiqh.uz/maqola/809> (murojaat sanasi: 15.12.2025).



3. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. 1-jild. Toshkent: Irfonnashr, 2021.
4. Abu Ja'far at-Tahoviy. Sharh Maoniy al-Osor. 1-2-jild. Lubnon: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2018.
5. M. Abduqodirov. Muhaddislar va hanafiy fuqaholar nazdida hadis ilmlari. Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
6. Xatib Bag'dodiy. Al-Faqih va-l-mutafaqqih. – Bayrut: Dar al-Ilmiyya, 1996. – J. 2.
7. Shayh Muhammad Avvoma. Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o'rni. (tarjima) / Mutarjim: Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol Nashr, 2022.
8. Yorqinjon Fozilov. Sunnat va Hadis. Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.
9. Zafar Ahmad al-Usmoniy at-Tahanoviy. Qavoid fi ulum al-hadis. 1-jild. Riyoz: Shirkat al-abikon.
10. Zafar Ahmad al-Usmoniy Tahonaviy. E'lous sunan. 1-jild. Toshkent: Azon kitoblari, 2022.
11. <https://islom.uz> sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.
12. <https://muslim.uz> saytidan foydalanildi
13. <https://moturidiy.uz> saytidan foydalanildi
14. <https://fiqh.uz> saytidan foydalanildi.